



QUVADA SHAHAR TUZILISHI

Ma'murov Diyorbek Saydullo o'g'li¹
Turg'unboyeva Madina Baxromjon qizi²

¹⁻²Farg'ona davlat universiteti tarix fakulteti

Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7571992>

ARTICLE INFO

Received: 20th January 2023

Accepted: 24th January 2023

Online: 26th January 2023

KEY WORDS

shaharsozlik, o'rta asrlar,
Shahriston, arxeologik
tadqiqotlar,
Buddaviylik ibodatxonasi, olov
tepaliklari, arablar bosqini,
mo'g'ullar istilosi, shishasozlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'rta asrlardagi markaziy Osiyodagi yirik shaharlardan bo'lmish Quva haqida so'z boradi. Quva shahri o'rta asrlarda yirik ilm fan va madaniyat markazlaridan biri edi. U kattaligi jihatidan Farg'ona vodiysida Axsikent shahridan keyingi o'rinda turadi. Ba'zi manbalarda qadimgi Davan davlatining poytaxtini ham aynan Quva shahriga to'g'ri keladi degan ma'lumotlar uchraydi. Quvadagi shaharsozlik arxeologik tadqiqotlar natijasida o'rganilgan. Va uning Farg'ona vodiysidagi eng yirik shaharlardan biri ekanligi tasdiqlangan.

Farg'ona vodiysida qadimdan shaharsozlik rivojlangan. Bu hududlardan o'rta asrlarda ham yirik madaniy markazlar mavjud edi. Misol qilib Axsikent, Mingtepa, Koson va Quva shaharlarini keltirishimiz mumkin. Bu shaharlar orasida Quva shahri alohida ajralib turadi. Bunga sabab esa shaharning qadimiyligi va o'rta asrlardagi eng yirik allomalardan biri bo'lmish Ahmad al Farg'oniymanshu yerda tavallud topgani bu yerga bo'lgan qiziqishlarni yanada ham oshirgan. Quva tumanida joylashgan Manashu arxeologik tarixiy yodgorlikni o'rganish 1956-yildan boshlangan edi. Manashu yili arxeolog Jukov tomonidan qadimiy Quva shahrining arxeologik xaritasi tayyorlangan edi. Shu davrdan boshlab Quva shahrini ilmiy o'rganish ishlari boshlangan edi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Quva shahriga doir yodgorliklar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga yodgorliklari miloddan avvalgi I va milodiy I asrlarga tegishli yodgorliklar birlashtirilgan edi. Ikkinchi guruh yodgorliklari esa IV-VII asrlarni o'z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchi guruh yodgorliklari asosan bir qatlamli yodgorliklar qatoriga kiritilgan edi. Uchunchi guruh yodgorliklari miloddan avvalgi I asrdan milodiy XIII asr boshlariga oid bo'lgan 33ta yodgorlik kiritilgan edi. Arxeolog V. A. Bulatova o'zining Qadimiy Quva kitobida manashu guruhlariga kiruvchi tarixiy yodgorliklarini nomini keltirib o'tadi. Uning yozishicha birinchi guruhga Chillamozor, Chiltontepa, Nomsiz tepa(Andijon yo'lida), Buyiston ota, Quva MTS yaqinidagi tepalik, Takyon tepa, Xo'ja Chilik tepa, Mullajon tepa va Qo'shtepa hududlari kiritilgan edi. Ikkinchi guruh yodgorliklariga esa Yomonjartepa, Quva temiryo'l bekati yaqinidagi tepalik, Oqtepa, Qizil ketmon tepa, O'ris mozor tepalarini oz ichiga olgan edi. Uchunchi guruhga kiritilgan yodgorliklar boshqa yodgorliklarga nisbatan yaxshi saqlanib qolgan edi. Bular: Zindontepa, Quva shahristoni ravotlari bilan, Oqota tepa, Zangish tepa, Chornibo tepalaridan

iborat. Lekin yuqorida sanab o'tilgan tepaliklarning katta qismi hozirgi kunga qadar saqlanib qolmagan. Ushbu yodgorliklardan eng yaxshi o'rganilgan va katta qismi saqlanib qolgani bu Quva shahristoni hisoblanadi¹. Shariatining taraqqiyot bosqichi uch davrdan iborat. Birinchi davr miloddan avvalgi birinchi va milodiy birinchi asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Quva shahri vujudga keladi. Bu paytda Quva shahrini suv bilan taminlash maqsadida Quvasoy suvlari kanallar orqali bu hududlarga olib kelingan. Ikkinchi bosqichda esa ilk feodal qishloq va shaharlar vujudga keladi. Quva shahristoni maydoni ham kengayib boradi. Aholi nafaqat Quva shahristonidan tashqari hududlarga ham kelib o'rnasha boshlaydi. Bu davrda Quva shahri unga rabot qismi Zindontepa hududida joylashgan edi. Ikkinchi bosqich araar istilosi va Farg'onada arablar hukmronligi o'rnatilishi bilan yakunlanadi. Bu davrda arablar istilosidan so'ng ham Quva shahri o'zini qayta tiklay oladi. Va Farg'ona vodiysida kattaligi jihatidan ikkinchi o'rinda turgan edi. Uchinchi bosqichda esa mo'g'ullar istilosi gacha bo'lgan davr kiritilgan edi. Mo'g'ullar istilosidan so'ng bu hududlarda shahar hayoti butkul barham topadi. Bu istilo daxshatlari uzoq vaqtlar saqlanib qoladi. Mo'g'ullardan so'ng Quva shahri qayta tiklanmadi. Bu hududlar o'zini avvalgi markaz roliga qayta olmadi. Bu haqidagi ma'lumotlarni Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub Boburnoma asarida ham ko'rishimiz mumkin. U kitobda Quva bu davrda kichik qasaba qishloq sifatida namoyon bo'ladi².

Quva shahristoni hozirga qadar saqlanib qolgan. U manzilgoh hozirgi Quvaning sharqiy tarafida Andijon-Marg'ilon yo'li bo'ylab joylashgan. Shaharning qurilish rejasi to'rt burchakli shaklda bunyod etilgan edi. U haqidagi yozma manbalar asosan VIII-X asrlarga oid. Xozirda bu shaharning tashqi ko'rinishi haqida biror narsa deyish mushkul. Chunki shahriston hududi to'liq tuproq ostida saqlanib kelinmoqda. Shuningdek uning katta qismi shahar markazida joylashgan g'isht zavodi tomonidan uzoq yillar davomida olib borgan qazish natijasida buzib yuborilgan. Ayniqsa shahristonning sharqiy, g'arbiy va janubiy tomklari juda ham xarob ahvolga kelib qolgan. Bu yerdagi tabiiy ko'rinish deyarli to'liq buzilib ketgan. Shaharning manashu qismidagi chetlari huddi tik qoyalarga o'xshab qolgan. Shunday qilib shahristonning shimoliy tarafi kamroq vayron bo'lgan. Bunga asosiy sabab shu tomonda qamish osib yotgan ko'lining mavjudligi edi. Keyingi davrlarda esa bu ko'l ham quritiladi.³

Shariston atrofga nisbatan baland tepalikda joylashgan edi. U tevarak atrofdan 7-8 metr balandroq. Uning atrofida ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan shahar mudofaa devorlarini qoldiqlarini ko'rishimiz mumkin. Keyingi davrlarda Quva Shahristonidan bayon gavjumlashib boradi. O'rta asrlarda Quva shahar hayoti rabot qismlarga ham ko'chib o'tadi. Quvaning ravotlari o'rta asrlarda juda ham tez rivojlanadi. Ular shahristonni uch tarafdin: g'arb, sharq va janubdan 1.5 kilometrgacha bo'lgan kenglikda o'rab turgan. Buning isboti biz Andijon yo'lidagi o'rta asrlardagi qabriston va aholi yashash manzillari korsatishimiz mumkin. Janubiy va g'arbiy rabot qismida esa hunarmandlar mahallalari joylashgan edi.

¹ Б. А. Литвинский. Ука работа; Б. Я. Ставский. Средняя Азия,

Индия, Рим, в сб. 'Инди в древности', стр. 169—176

² Yigitali Usmonov. Jannat bog'i. Farg'ona, 1995. – В. 19-20.

³ Булатова. Дверная Кува. 13-14 стр

Quva shahri X asrdayoq qal'a, shahriston, va robot qismlarga bo'lingan edi. Bu yer X asrdayoq o'zining tanga chaqa tizimiga ega bo'lgan⁴. Bu davrda Somoniylar amirlari oliy hokimiyatni egallaganliklariga qaramay, mahalliy amaliy boshqaruv, pul chiqarishni o'zlarining joylardagi mahalliy amaldorlariga ishonib topshirishgan. Quva shahri Farg'ona markazi bo'lganliklari haqida juda ham ko'plab ma'lumotlar uchraydi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki o'rta asrlarda Quva shahri juda ham yirik madaniy markaz vazifasi bajargan. Buni biz arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan moddiy topilmalar va aholi yashash manzilgohlaridan ham korishimiz mumkin. Hozirgi kunda ham Quva tarixshunosligi bo'yicha munozarali savollar birtalay. Bu savollarga javobni keyingi yillarda olib boriladigan arxeologik tadqiqotlar natijasida javob topishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И. Ахроров. Археологические раскопки в шахристане городища Кува. ИМКУ, вып. 10. Т., 1973
2. В. Matboboyev, Т. Shirinov, G. Ivanov. Ahmad al-Farg'oniy davrida Quva shahri (uch yilda). Т. 1998
3. В. А. Булатова. Древняч Кува. Издательство «ФАН» Узбекской ССР. Ташкент-1972, 115 стр.
4. В. А. Булатова. Буддийский храм в Куве. СА. 1961. №3 241 стр.
5. Yigitali Usmonov. Jannat bogi. Fargona, 1995. – 101 b.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. Т. 11.
7. O'zbekiston arxeologiyasi ilmiy jurnali. Samarqand №2[13] 2016. 103b.
- 8.
9. В. А. Булатова. Бронзовый штамп из жилого комплекса VII в. ИМКУ. Т., 1963. Вып 4. 110-115 стр

⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy Nashriyoti, 2009. Т. 11. – В. 125-126.